

TARBIYA DARSLARIDA SHARQ ALLOMALARINING ILMY MEROSLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Davronova Nigina Elbekovna

Toshkent Xalqaro Kimyo universiteti magistanti

Annotatsiya: Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odobaxloq masalalaridagi qarashlari, hamda tarbiya darslarida allomalar ilmiy merosidan foydalanish to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Allomalar, A. R. Beruniy, Al Xorazmiy, tarbiya, asarlar, ma'nnaviyat, ahloq, mutafakkir

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalar ekanlar: "Bolalarimizni birovchlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz".

Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Ular o'z asarlarida shaxs ma'nnaviyati, insonda odobaxloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'nnaviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'nnaviy yuksak, zamonaviy ilmfanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'nnaviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi esa buyuk bo'ladi

Tarbiya - shaxsni muayyan yo'nalishda shakllantirish, kamol toptirish maqsadida turli odamlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy munosabatdir. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita

bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lif-tarbiya ishlaringning qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'liftarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan beba ho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lif va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi". Har bir xalqning ta'liftarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlarini eta olmagan orzuumidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

O'rta asrda Markaziy Osiyoda ijod etgan mutafakkirlar beqiyos ilmiy xazina yaratdilar va ularning durdona meroslari, boy ijodi, ilmiy va falsafiy fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy kabi buyuk faylasuf va allomalarning asarlari jahon sivilizatsiyasining oltin xazinasidan munosib o'r'in olgan, jahon fani va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan. O'rta asr Markaziy Osiy mutafakkirlarining ijodini tadqiq etgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida bu o'z ifodasini topganlo.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Mutafakkirning 154 ta asari nomlari ma'lum. Ulardan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Ma'sud qonuni", "Astronomiya va yulduzlar to'g'risida", "Minerologiya" va boshqa asarla- ri bizgacha yetib kelgan. Mutafakkir o'z asarlarida falsafiy-axloqiy qarashlar bilan bir qatorda xalqlar o'rtasida do'stlik va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Beruniyning fikricha, kishilar uchun dunyoda turli holatlar bor. Bu mahmud (maqtaluvchi), yaxshilik va yomonlikdir. "Maqtanarli (yaxshi) hollarning (markazi) muruvvat (mardlik-erlik) bo'lib, muruvvatning tayanchi poklik va tozalikdir", – deydi. Beruniyning fikricha, kishi axloqiy mukamallikka erisha olishi uchun o'z xulqi va odatlaridagi nuqsonlarni to-zalab, o'zini tarbiyalab, axloqan davolashi zarur, deydi. Be-

runiy xalqlar o'rtasida do'stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Beruniy o'zining "Hindiston" asarida oila va nikoh munosabatlarini yoritadi. Mutafakkir oila va nikoh munosabatlarining nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan taddiq qilar ekan, oilaning mustahkam va tinchtotuv bo'lishi, er-xotinning ahilligi, shirinso'zligi, bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatiga bog'liq, degan fikrni ilgari suradi.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi biz- ni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka, adolatga va mehr-oqibatga chaqiradi. Albat- ta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini, tarixini, o'ziga xos urf-odat va an'analarini milliy qadriyatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Irrigatsiya tizimlari, turli qal'a va ko'p qavatli saroylarni barpo etishda bajariladigan murakkab texnik vazifalar matematik hisob-kitoblarni talab etar edi. Natijada, o'rta asr Markaziy Osiyo falsafasida bilimning matematiklashuvi yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonga "algoritm" tushunchasi yorqin misol bo'la oladi. "Algoritm" algebraga oid masalalarni yechishga mo'ljallangan metod sifatida birinchi bo'lib Xorazmiy tomonidan ishlab chiqildi va fanga kiritildi.

"Algoritm" atamasi buyuk mutafakkirning ismidan olingen bo'lib, keyinchalik u pozitsiyali sanoq sistemasi bo'yicha tartiblash (raqamlashni), hozirda esa qo'yilgan masalani yechimga olib keluvchi ma'lum qatiy tartib, shuningdek kengroq ma'noda qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan ma'lum operatsiyalar tizimidir".

"Xorazmiya qadar chiziqli va kvadrat tenglamalar fanga ma'lum edi. Ammo ular har doim turlicha va individual tarzda yechilar edi. Barcha uchun qabul qilingan umumiyligi, yagona qoida, algoritmlar mavjud emas edi". Xorazmiyning buyuk xizmati shundan iboratki, u bu tenglamalarni tafakkur uchungina emas, balki amaliy, kundalik vazifalarni bajarish uchun yaratadi, ya'ni abstraktlik doimo konkretlikda o'z ifodasini topadi"

Shuningdek, yurtimizdagи olimlar tomonidan trigonometrik elementlarning sintezi ham amalga oshiriladi. Trigonometriya o'rta asr allomalari tomonidan alohida fan sifatida shakllantirildi. Vaholanki, trigonometriya Yevropa ilmiy doirasiga XVI asrning ikkinchi yarmida kirib boradi va yanada rivojlantiriladi.

Tarbiya darslari orqali o'quvchi yoshlar qanday yashash, o'qish va ishlash kerakligiga namuna, o'mak bo'la oladigan allomalarining ilg'or fikr va g'oyalari bilan tanishtirish imkoniyatlari ochib beriladi; ular ongi mutafakkirlar turli ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarda qanday faoliyat ko'rsatganligi haqidagi bilimlar bilan boyitiladi; talabalarning ma'naviy sifatlarni tarbiyalash

haqidagi tushuncha va tasavvurlari kengaytiriladi. O'quvchilarda o'zining buyuk yurtdoshlari, dunyo ilm-fani, jumladan tarbiya fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlar bilan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'lди; Vatanga muhabbat, uning tarixi, an'analariga qiziqishi ortadi; xalqimizning buyuk allomalari merosini mustaqil ravishda yanada chuqurroq o'rganishga ishonch hosil qilinadi.

Sharq mutafakkirlari ijodini o'rganish yordamida yoshlarda milliy g'oyani shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy yetish;

- hayotni anglashga qiziqish hissini o'stirish, atrof-muhit va inson xarakterining murakkabligini tushunish qobiliyatini rivojlantirish;

- Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

- Sharq mutafakkirlarining didaktik asarlari yordamida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlar uyshtirish;

- O'quvchilarning ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan tashviqtarg'ibotchilik faoliyatini takomillashtirishga alohida ahamiyat berish;

- Mutafakkirlarimiz ijodi yordamida o'quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta'minlash hamda o'quvchi shaxsini kamol toptirish.

Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxtsaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega". Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lismga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarni ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lismga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga

sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Haydarov A. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y
3. Jalilov Z.B. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lif jurnali. 2017 yil, 5-son
4. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y
5. Beruniy tug'ilgan kunining 1000- yiligi. – T.: Fan, 1973.